



Bekzod IBRAGIMOV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-mail: bekzod_jurnalist@mail.ru

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Sh. Hayitov taqrizi asosida.

THE FOUNDER OF THE PARABLE GENRE IN THE 20TH CENTURY

Annotation

The article talks about parables, which are an important aspect of the work of Mashriq Yunusov (Elbek), a great representative of modern literature. In particular, the parables of the poet are compared with the parables of the Eastern and Western literature and studied comparatively. Similarities and differences with parable writers such as Alisher Navoi, Gulkhani, Lafontaine, I.A. Krylov are revealed.

Key words: Elbek, modern literature, parable genre, Alisher Navoi, Fitrat, Krylov, folklore, wolf, sheep, symbolic expression.

ОСНОВОПОЛОЖНИК ЖАНРА ПРИТЧИ В 20 ВЕКЕ

Аннотация

В статье говорится о притчах, которые являются важным аспектом творчества Машрика Юнусова (Эльбека) – крупного представителя современной литературы. В частности, притчи поэта сопоставляются с притчами восточной и западной литературы и сравнительно изучаются. Выявляются сходства и различия с такими писателями-притчами, как Алишер Навои, Гулхани, Лафонтен, И.А. Крылов.

Ключевые слова: Эльбек, современная литература, жанр притчи, Алишер Навои, Фитрат, Крылов, фольклор, волк, овца, символическое выражение.

XX ASR MASALCHILIGI ASOSCHISI

Аннотация

Maqolada jadid adabiyotining yirik vakili Mashriq Yunusov (Elbek) ijodining muhim bir qirrasini bo'lgan masalchiligi borasida so'z boradi. Xususan, shoirning masallari Sharq va G'arb adabiyotidagi masallar bilan solishtirilib, qiyosiy o'rganilgan. Alisher Navoiy, Gulxaniy, Lafonten, I.A. Krilov kabi masalchilar bilan o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Elbek, jadid adabiyoti, masal janri, Alisher Navoiy, Fitrat, Krilov, xalq og'zaki ijodi, bo'ri, qo'y, ramziy ifoda.

Kirish. Bugun jadid davri adabiyotini, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy".[8] O'zbek jadid adabiyotidagi shakliy-uslubiy o'zgarishlar haqida gap ketar ekan, bu davrda janrlar ko'lamining kengaygani, shoir va yozuvchilar dunyo adabiyoti bilan kengroq tanishib, o'zlari ham dunyoga bo'ylashishga zamin yaratganini qayd etish lozim. Zotan, Abdulla Qodiriy ilk o'zbek zamonaviy romanchiligiga asos solgan bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiy drama janrining yuzaga kelishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shu ma'noda, Elbek XX asr boshlarida anchayin sustlashib, tarixiy ildizlaridan uzilayotgan masal janriga qo'l urdi va uni yangicha yo'nalishda taraqqiy ettirishga harakat qildi. Abdurahmon Sa'diy ta'biri bilan aytganda, keyingi davr o'zbek adabiyotida "masalchilikni Elbek boshladi. Tarjima yo'li bilan emas, balki masalchilikni tug'dirish yo'lini tutdi. Hali bu yo'lda undan boshqa kishi ko'rinnagan"[12].

O'z davrining yetuk adabiyotshunosi sanalgan Fitrat masal janri haqida voqealar ko'proq hayvonlar orasida tasvirlanishi, o'quvchilarga qanday bo'lsa-da, bir ibrat berish tiligi bilan yozilishini aytib o'tadi. "Bizning adabiyotimizda Navoiyning forsiydan ko'chirgani "Lison ut-tayr" kitobi kattakon bir masal bo'lg'oni kabi Guxaniy shoirning "Zarbulmasal"ida bir masal, zamonamizda esa masalchilik yo'lida Elbekning oncha xizmatlari bo'lib turadir".[4] Elbekni shunday e'tirof etgan Fitrat shu asarida uning "Ikki tulki" masalini misol tariqasida keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elbek masalchilik bilan jiddiy shug'ullangan. Dunyo adabiyotidagi shu janrdagi sara asarlarni tarjima qilgan, o'rgangan, shu bilan birga, Sharq falsafasini, xalq og'zaki ijodini o'zaro uyg'unlashtira olgan. Elbek 1921, 1923 yillarda chop ettirgan "Armug'on" masallar to'plamiga 18 ta masal kiritilgan. To'plamning ikkinchi nashri jiddiy qayta ishlangan va badiiylik nuqtai nazaridan ancha

pishitilgan. Elbek masallari uning keyingi yillarda chop etilgan to'plamlariga ham kiritilgan. "Momoguldirak" to'plami, Haydarali Uzoqov tomonidan nashrga tayyorlangan "Tanlangan asarlar"ida ham bir qator masallari o'rin olgan.

Shuni ham qayd etish kerakki, Mashriq asarlarida xalq og'zaki ijodining turli motivlari o'z aksini topadi. Ashurali Zohiriy aytganidek, "...shoir Elbek xalq mulki – og'iz adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el tilining tushunarli ta'sirlaridan foydalangan, el bolalar adabiyotida masalchilikni yaratgan katta san'atkor"[3] edi. Ammo Elbek masallari har doim ham xolis va haqqoniy o'rganilmagan. Uni to'g'ri tushunmasdan, saviyasi pastlikda ayblagan, yozuvchining pozitsiyasi aniq emas, deya malomat qilganlar ham bo'lgan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. biografik, sotsiologik, qiyosiy-tarixiy.

Tahlil va natijalar. Elbek masallarni bolalar uchun yozgan bo'lsa-da, unda chuqur ijtimoiy muammolar, shoirning dard-alamlari yashirin ramzlar vositasida o'z aksini topadi. Shoir o'zining "Ot ila odam", "Qaysi biri bo'ri?", "Sichqonxonning qiz uzatishi", "Olaqarg'a bilan qurbaqa", "Ikki tulki", "Kampirning tovuqlari", "Fil va laycha" kabi masal va ertak-masallari orqali nozik kulgu va yumor vositasida zamonasining dolzarb muammolarin ochib bera olgan[3].

Masalan, "Olaqarg'a bilan qurbaqa" masalida olaqarg'a qo'lga tushib, yemakka aylangan qurbaqaning hiyla bilan undan qutulib qolishi tasvirlangan. Ya'ni qurbaqa olaqarg'ani ko'kka ko'tarib maqtab, uning tovushining dunyoda tengi yo'qligi va bir sayrab bersa, maza qilib tinglasa, armonsiz ketishini aytib, qarg'a sayrayotgan mahal qochib qoladi. Shu kabi motivlar o'zbek va boshqa xalqlar ertaklarida ko'p uchraydi. Bu yerda aynan olaqarg'aning tanlanishi sababi esa uning ovozinig o'ta yoqimsizligi va yomonlik xabarchisi ekanidadir. Qarg'a qanchalik xunuk va yoqimsiz bo'lmasin, maqtovg'a uchib, o'zining ovozinig tengi yo'q ekaniga ishonadi va sayrashga tushadi. Oqibatda o'ljani qo'ldan chiqaradi.

Shuningdek, "Sichqonxonning qiz uzatishi" erтак-masalasi ham xalq og'zaki ijodidan olingan erтак asosida juda yaxshi ifoda etilgan. Masal ritmi, qofiyasi jihatidan mukammal bo'lmasa-da, shoir asl mazmun-mohiyatni bolalar uchun tushunarli tarzda go'zal ifoda etgan. Sichqonxonning qiziga kuyov izlab, dunyo kezib, oxiri o'z qavmidan munosib nomzod topishida "Teng tengi bilan", "Peshonaga yozilganidan qutulib bo'lmaydi" kabi naql va xalq maqollari mujassam.

"Ot ila odam" masalida ham e'tiborni tortadigan jihatlar bisyor. Unda o'z yaylovida toza o'tlardan yeb, tiniq buloqlar suvin ichib, rohat-farog'atda, eng muhimi, erkinlikda yashab kelayotgan ot bir kuni nogoh yaylovida bir ho'kizning o'tlab yurganini ko'rib qoladi. Bundan jahli chiqib, uni haydab yuborish uchun odamdan yordam so'raydi. Odam esa piyoda uzoqqa borolmasligini bahona qilib, o'tni no'xtalab, minib oladi. Ot maqsadiga erishadi. Ho'kiz yaylovdan qutuladi. Ammo uning ustiga chiqib, jilovini qo'lga olgan odam o'tni ozod qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Asl vaziyatni, odamning maqsadini anglab qolgan o'tning yolvorishlari bekor ketadi:

...O'tning bunday yalinishlarin ko'zga ilmay,

Uning shunday holig'a hech rahm qilmay,

Qamchi bilan aylantirib to'rt-besh urdi:

Ho'kiz bilan birga qo'shib bog'lab qo'ydi...[3]

Shoir izohda "Buning asli xalq erтакlaridan olinmishdir", degan bo'lsa-da, unda o'sha zamon siyosiy tuzumi yaqqol akslanadi. Masal yozilgan vaqtda, ya'ni 1921 yili Chor Rossiyasining mustamlaka siyosati mustahkamlanib, xalq masaldagi yordam so'rab qo'lga tushgan ot kabi "qoziqqa bog'lagan" – erki va huquqlaridan mahrum etilgan palla edi. Rossiya va Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyo uchun kurashi hammamizga ma'lum. Ularning hech biri yordam qo'lini cho'zganda samimiyat bilan ittifoq tuzish uchun emas, o'ziga bo'ysundirish va yo'rig'iga yurgizish uchun harakat qilgan. Shu jumladan, ruslar bosqini ham o'sha davrda hashpo'shlanib, ayrim tarixchilar tomonidan agar Rossiya bo'lmaganda, O'rta Osiyo Angliyaga qaram bo'lib qolardi, Rosiya bizni boshqa bir davlat bosqinidan qutqarib qoldi, degan qarashlar bilan tarixni o'zgacha talqin etishga urinilgan. O'shanday qaltis vaziyatda Elbek ushbu masali bilan xalqning ko'zini ochishni, mustamlaka sababi va oqibatini tushuntirishni maqsad qilgan bo'lsa ne ajab.

Ayni shunday mustamlaka siyosatining achchiq oqibatlari "Qaysi biri bo'ri?!" masalida yanada aniqroq ochib berilgan. Bo'riining qo'lga tushgan qo'y o'zining o'lishini bilib, g'amga botib turganda bir kishi shovqin solib kelib, bo'rini quvadi va qo'yni undan xalos etadi. Bechora qo'yning quvonchi ichiga sig'masdan "sakradi, suyundi, shodlandi". Ammo...

Ul kishi ham qo'yni uyiga keltirib

Pichoq bilan qo'ydi uni tez so'yib.

Ana, fojia qayerda? Bir zolimning qo'lidan xalos bo'lgan qo'y "xaloskori"ning qo'lida o'lim topadi. Joni chiqar mahal tipirchilar ekan, shunday deydi:

"...Ey kishi,

Bo'rini yo, aytgil, endi kim vahshiy?

Qutqarding sen meni bo'ri ilgidan,

Hamda qo'rqinch shu o'limning vahmidan.

Eng so'ng o'zing bo'ridan-da o'zdiriding,

Ko'rdim, endi chin bo'ri ham sen bo'lding"[3].

Yuqorida aytganimizdek, qattol mustamlaka tuzumini oqlash uchun to'qib chiqarilgan turli vaj-karsonlar, tarixni buzib ko'rsatishga urinishlarga qarshi javob tarzida bitilgan bu masal o'z davri uchun g'oyatda kuyunib yozilgan, shu bilan birga, katta yurak bilan, yuksak jasorat va isyon o'laroq bitilgan desak, xato bo'lmaydi.

Elbek masallarini kuzatar ekanmiz, nafaqat, xalq og'zaki ijodi, Sharq mumtoz adabiyoti, balki rus va Yevropa adabiyoti ta'siri ham yaqqol seziladi. Jumladan, Karel Chapekda qo'ylar tilidan aytilgan ajoyib masal bor: "So'yishsa so'yaverishsin, bo'ri daxl qilmasa bo'lgani"[6]. Yoki Krilovning "Qo'ylar va itlar" masalida qo'ylarni bo'rilardan asrash uchun itlar sonini oshirishadi. Natijada itlar shunchalik ko'payib ketadiki, ularni boqish uchun qo'ylarni bir-bir so'yishga to'g'ri keladi. Nihoyat masal so'ngida "Bor-yo'g'i besh olti qo'y qolgan edi – Ularni ham itlar yeb bitirishdi"[7], deya yakunlanadi. Yoki Krilovning

"Bo'ri va cho'ponlar" masalida bir bo'ri qo'ton yonidan o'tib ketayotganda cho'ponlarning eng semiz qo'chqorni bemalol bo'g'zlayotganiga ko'zi tushadi va o'zicha shunday deydi:

"Agar bu ishini men qilganimda –

Ko'tarar edingiz qanchalik shov-shuv"[7].

Bulardan tashqari, Elbek masallarini yaratishda Navoiy, Gulxaniy kabi ijodkorlar masallaridan, xalq og'zaki namunalaridan ilhomlanadi. Buni zukko o'quvchi bir qarashdayoq ilg'ay oladi. Ammo shoirning o'z uslubi, voqeani o'quvchiga sodda va tushunarli, lo'nda qilib yetkazishi masallarni qiziqarliroq va ta'sirliroq qiladi. An'anaviy Sharq masalchiligidan farqli ravishda alohida "qissadan hissa" chiqarib, nasihat qilmaydi. Voqealar yakuni orqali masalning asosiy sharti bo'lgan "ibrat" kelib chiqadi.

Millat va milliyat birligi g'oyalari Elbek she'riyatida asosiy o'rin tutadi. Garchi uning aksariyat ijod namunalari bolalar uchun yozilgan bo'lsa-da, sodda va oddiy til bilan ona Turkiston birligini, milliy o'zligimiz, qadim ildizlarimiz qayerlarga borib taqalishini tushuntiradi. Goh masal, goh kichik parchalar ko'rinishida o'z g'oyalari o'quvchiga anglatishga urinadi. Shoir "Ishtirokiyun" gazetasi 1920 yil 21 mart sonida bosilgan "Til" maqolasida Turkistondagi turklar o'z tilidan ayrilayozg'onini aytib, uni shunday izohlaydi: "Bizning Turon o'lkasida yetishgan turk bolalari esa o'zlarining nuqul turk ekanlarin esdan chiqordilar ham har bir turk yozuvchilari o'zga tilda yozib, o'zga tilni maqtab onga yaxshilik eta boshladilar". O'zbek tili jonkuyari bo'lgan Mashriq millatning birligi til bilan ekanini yaxshi anglaydi va uni boyitish yo'lida bor kuch-g'ayratini ayamaydi. Xususan, shoirning "Turkiston" masali millatlar birligi va ularning bo'linish oqibatlarini o'zida aks ettiradi. Unda "Turkiston bobo"ning bolalarini yoniga chorlashi va ularga nasihat qilishi voqeviy tarzda ko'rsatiladi. Bobo Turkiston o'lmoqda. O'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz kabi bolalari esa o'rtada mol talashmoqda. Bobo ularga murojaat qilib, talashmaslikni, hammasiga o'z ulushini, enchisini berganini aytadi.

Biroq qaysi bolasi

Bu enchiga ko'nagan,

Bir-biri-la tortishib,

Otasig'o yig'lag'on.

Otasi Turkiston esa ularga qarab achchiq kuladi. "Har kim tirishchoq bo'lsa, O'zi topar molini; Yalqov o'g'illarimning Kimlar tinglar zorini?", deb afsus chekadi va o'zini bir chetga otib, jim bo'ladi. Bu masal bilan Elbek 1924 yildagi hududiy bo'linishga tayyorgarlik ko'rilayotgani sezgan holda, bu yaxshi oqibatlarga olib kelmasligini bashorat qilgandek bo'ladi.

Shoir masallari satirik ruhda va she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ularda xalq og'zaki ijodidagi hayvon obrazlari stilizatsiyasi an'anaviy usulda amalga oshirilgan hamda muayyan estetik vazifani bajarib, ma'lum bir g'oyaviy maqsadni ochishga xizmat qilgan. Elbek masallarida mifologik obrazlar stilizatsiyasi ham kuzatiladi[1].

Masal-bu allegorik janr, shuning uchun axloqiy va ijtimoiy muammolar fantastik belgilar, ko'pincha hayvonlar to'g'risidagi hikoyalar orqali bayon etiladi[5]. "Imom bilan qo'ychiboy" masalida ham davrning iltalidan biri satirik ruhda ifoda qilinadi. Vafodor iti o'lgan cho'pon imomning oldiga o'likni kafanlab ko'mishda yordam so'rab keladi. Tabiiyki, imom bundan jahli chiqib, rozi bo'lmaydi. Ammo boyning pulini ko'rgach, qanday qilib oldiga tushib yo'rg'alaganinin sezmay qoladi. "O'zim borib uni kafanlay qolay, Ozroqqina to'xtang, tahorat olay..." deya qo'shib ham qo'yadi. Bu bir tomondan o'shsha davrdagi soxta imomlarga nisbatan tana bo'lsa, ikkinchi tomondan, kishining nafsi oldida o'zligini ko'rsatmoqchi bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Bir so'z bilan aytganda, Elbek ijodida masallar alohida o'rin tutib, ularni keng tadqiq etish, yosh avlodga o'rgatish yaxshi samara beradi. Elbek dastlab "Chig'atoy gurang" tashkilotida, so'ng "Bilim" jamiyatida xalq og'zaki ijodini chuqur tadqiq etgani va folklor namunalari to'plaganining uning ijodiga sezilarli ta'sir qilgan va zamonaviy masal janrining taraqqiy etishiga hissa qo'sha olgan. Bu borada alohida tadqiqotlar qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Amanov U. XX asr boshlarida o'zbek folklorining o'rganilishi tarixi (abdurauf fitrat, g'ozi olim yunusov va elbek faoliyati misolida). filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2018.
2. Bobomurodova Sh. Elbekning tilshunoslik merosi. (monografiya) – Toshkent. Nodirabegim. – 2020.
3. Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent. Sharq. – 1999.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent. “Ma’naviyat” 2006.
5. G’aniev, F. Masal janri tarixi va uning adabiyotshunoslikdagi o’rni. Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik xalqaro ilmiy forumi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollarmavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. Buxoro. – 2021.
6. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/karel-chapek-1890-1938-chexiya/karel-chapek-masallar>
7. Krilov.I.A. Masallar. Toshkent. Adabiyot va san’at. – 1980.
8. Mirziyoyev Sh. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
9. Qobulov N. Elbek. Toshkent. Adabiyot va san’at. – 1998.
10. Qosimov B. “Milliy uyg’onish. Jasorat, ma’rifat, fidoyilik”. – Toshkent. Ma’naviyat. – 2002.
11. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti. Toshkent. Ma’naviyat. – 2004.
12. Uzoqov H. Erk yo’lida erksiz ketgan fidoyi. // Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent. Sharq. – 1999.